

## II. YALPI HUDUDIY MAHSULOT

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2021- yil yanvar-sentabr oylarida Namangan viloyati bo'yicha Yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda YAHM) hajmi joriy narxlarda 24 145,3 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2020- yilning mos davriga nisbatan O'sish sur'ati 108,0 % ni tashkil etdi.

















2021- yil yanvar-sentabr oylarida aholi jon boshiga YAHM 8 352,5 ming so'mni tashkil etgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2020- yilning mos davriga nisbatan 5,8 % ga oshdi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAİM ni shakllantirishda Namangan viloyatining qo'shgan hissasi 4,6 % ni tashkil etdi.

### Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHMni ishlab chiqarish (yanvar-sentabr oylarida)



	mlrd. so'm		2020- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan, % da
	2020- yil	2021- yil	
<b>I. Yalpi hududiy mahsulot, jami</b>	<b>19 626,5</b>	<b>24 145,3</b>	<b>108,0</b>
<i>shu jumladan:</i>			
Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	19 123,1	23 531,8	108,0
Mahsulotlarga sof soliqlar	503,4	613,5	108,9
<b>II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati</b>	<b>19 123,1</b>	<b>23 531,8</b>	<b>108,0</b>
<b>Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi</b>	<b>7 841,1</b>	<b>9 508,7</b>	<b>104,1</b>
<b>Sanoat (qurilish sohasini qo'shgan holda)</b>	<b>3 897,4</b>	<b>5 072,1</b>	<b>112,8</b>
sanoat	2 463,7	3 337,2	114,7
qurilish	1 433,7	1 734,9	109,4
<b>Xizmatlar</b>	<b>7 384,6</b>	<b>8 951,0</b>	<b>109,6</b>
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1 368,2	1 704,1	111,4
tashish va saqlash, axborot va aloqa xizmatlari	966,3	1 239,1	117,3
boshqa xizmatlar	5 050,1	6 007,8	107,6

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHMni ishlab chiqarish**  
(2021- yil yanvar-sentabr)

		YAHM hajmi, mlrd.so'm	2020 yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan, % da
	YAHM	2020 yil — 19 626,5 2021 yil — 24 145,3	 108,0 %
	Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	2020 yil — 7 841,1 2021 yil — 9 508,7	 104,1 %
	Sanoat	2020 yil — 2 463,7 2021 yil — 3 337,2	 114,7%
	Qurilish	2020 yil — 1433,7 2021 yil — 1 734,9	 109,4%
	Savdo, yashash va ovqatlanish xizmati	2020 yil — 1368,2 2021 yil — 1 704,1	 111,4%
	Tashish va saqlash, axborot va aloqa	2020 yil — 966,3 2021 yil — 1 239,1	 117,3%
	Xizmatlarning boshqa sohalari	2020 yil — 5 050,1 2021 yil — 6 007,8	 107,6%
	Mahsulotlarga sof solliqlar	2020 yil — 503,4 2021 yil — 613,5	 108,9%

## Yalpi hududiy mahsulotning tarmoqlar tarkibidagi ulushi (foizda)


2020- yil yanvar-sentabr




Yalpi hududiy mahsulotda 2021- yil yanvar-sentabr oylari davomida respublikadagi barcha kichik tadbirkorlik (biznes)ning umumiy hajmi 268 334,3 mlrd. soʻmni tashkil etib, shundan Namangan viloyatida faoliyat koʻrsatayotgan kichik tadbirkorlik (biznes)ning umumiy hajmi 17 601,1 mlrd. soʻmni tashkil etdi. Shuningdek, 2020- yilning yanvar-sentabr oylarida Oʻzbekiston Respublikasida 219 070,2 mlrd. soʻmni, Namangan viloyatida esa 14 257,3 mlrd. soʻmni tashkil qilgan.

Yalpi hududiy mahsulotda 2021- yil yanvar-sentabr oylarida respublikadagi barcha kichik tadbirkorlik (biznes)ning umumiy hajmdagi ulushi 55,7 % (2020- yil yanvar-sentabr 52,2 %) ni tashkil etgan boʻlsa, Namangan viloyatining ulushi 74,8 % (2020- yil yanvar-sentabr 74,6 %) ni tashkil etdi.


### Kichik biznesning YAHMdagi ulushi (foizda)



**2020 yil  
yanvar-sentabr**



**2021 yil  
yanvar-sentabr**



Aholi jon boshiga Yalpi hududiy mahsulot hajmi 8 352,5 ming soʻmni tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan 105,8 foizga oʻsdi.


**Aholi jon boshiga nisbatan Yalpi hududiy mahsulot hajmi**  
(ming soʻm)

	2020- yil	2021- yil
Yanvar-iyun	4 173,4	4 915,3
Yanvar-sentabr	6 931,0	8 352,5

**Iqtisodiy faoliyat turlari boʻyicha YAHMni ishlab chiqarish**  
(2021- yil yanvar-sentabr)

	mlrd. soʻm		Respublikada tutgan ulushi, % da
	Oʻzbekiston Respublikasi	Namangan viloyati	
<b>I. Yalpi hududiy mahsulot, jami</b>	<b>519 825,1</b>	<b>24 145,3</b>	<b>4,6</b>
<i>shu jumladan:</i>			
Tarmoqlarning yalpi qoʻshilgan qiymati	482 099,5	23 531,8	4,9
Mahsulotlarga sof soliqlar	37 725,6	613,5	1,6
<b>II. Tarmoqlarning yalpi qoʻshilgan qiymati</b>	<b>482 099,5</b>	<b>23 531,8</b>	<b>4,9</b>
<b>Qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi</b>	<b>129 534,6</b>	<b>9 508,7</b>	<b>7,3</b>
<b>Sanoat (qurilish sohasini qoʻshgan holda)</b>	<b>165 948,1</b>	<b>5 072,1</b>	<b>3,1</b>
sanoat	133 016,9	3 337,2	2,5
qurilish	32 931,2	1 734,9	5,3
<b>Xizmatlar</b>	<b>186 616,8</b>	<b>8 951,0</b>	<b>4,8</b>
savdo, yashash va ovqatlanish boʻyicha xizmatlar	34 139,0	1 704,1	5,0
tashish va saqlash, axborot va aloqa xizmatlari	34 386,2	1 239,1	3,6
boshqa xizmatlar	118 091,6	6 007,8	5,1

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha Respublikada viloyatning  
YAHMni ishlab chiqarishdagi ulushi  
(yanvar-sentabr, foizda)



■ Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi

■ Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati

■ Qurilish

■ Xizmatlar

■ Sanoat

■ Mahsulotlarga sof soliqlar

Namangan viloyatining Yalpi hududiy mahsulotning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha respublikada tutgan o'rni solishtirilganda, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaliklari hamda qurilish sohalarini ulushi yuqori ekanligini kuzatish mumkin.